

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

TA'LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN GURUHLARDA "O'ZBEK TILIDA SO'Z TARKIBI" MAVZUSINI O'RGATISH TAJRIBASIDAN

Dildor Bazarova¹

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek tilida so'z tarkibini rus tili bilan chog'ishtirib o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *davlat tili, morfemika, asos, qo'shimcha, ta'lim jarayoni, og'zaki nutq, yozma nutq.*

Annotation. This article is devoted to the study of the composition of words in the Uzbek language by combining it with the Russian language.

Key words: *state language, morphemics, basis, suffix, learning process, oral language, written language.*

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'zbek tili ta'limini takomillashtirish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbek tilining mavqei, obro'-e'tibori oshib borayotgan ayni kezlarda bu masala yanada dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunini amalga oshirish uchun zamon ruhiga, talabiga mos ish uslublarini joriy qilish hozirgi ta'lim jarayonining qat'iy talabidir. Ta'lim samaradorligi o'quvchi va talabalarning bilimida namoyon bo'ladi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda talabalarning o'zbekcha nutqini dars jarayonida, o'zbek tili mashg'ulotlari orqali shakllantirish va mustahkamlash eng muhim vazifalardan biri sanaladi.

O'zbek tili mashg'ulotlari shunday tashkil etilmog'i lozimki, har bir o'rganiladigan til hodisasi talaba e'tiborini o'ziga qaratsin, uni ijodiy faoliyat ko'rsatishga undasin, o'zligini namoyish etish imkoniyatini yaratsin.

Chunki, O'zbekistonda yashaydigan har bir boshqa millat vakili o'z oldiga murojaat qilib kelgan mahalliy kishi bilan o'zbek tilida bimalol gaplasha olishi, erkin muloqotga kirishib, uning fikrini tinglab tushunishi, anglay bilishi hamda shunga munosib javob qaytarishi lozim. Shuning uchun maktab, litsey, kollej hamda oliy o'quv yurtlarida til o'rgatish masalalariga jiddiy e'tibor beriladi.

Talabalar mashg'ulotlar jarayonida matn va mashqlarni tarjima qilish, yangi so'z va iboralarni yodlash, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish, so'zlarning asosi va ular tarkibidagi qo'shimchalarni aniqlash, so'z va qo'shimchalarni o'z o'rniga qo'llash natijasida o'zbek tilini va uning o'ziga xos

¹ Bazarova Dildor Baxranovna – *Qarshi DU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, PhD*

Iqtibos uchun: *Bazarova, D.B.* Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 88-90 b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/XRTV2773

tomonlarini o'zlashtira boradilar, o'rganganlarini amalda tatbiq etishga harakat qiladilar.

Til o'rganish jarayoni har bir talabada o'ziga xos tarzda kechadi. Chunki, talaba tilni o'z qobiliyati, tafakkur qudrati, bilim va ko'nikmalari doirasida o'zlashtiradi. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning so'z boyligi, grammatik bilimi oshirib borilsa, tayyor gaplar, matnlarni quruq yod oldirmay, so'zlash va yozish mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodiy-intellektual tayyorgarligi asosida o'tkazilsa, o'zbek tilini o'qitishdan ko'zlangan ta'limiy-tarbiyaviy maqsadga samarali erishish mumkin.

Masalan, talabalarda "O'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini tushuntirish orqali ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga harakat qilinadi. Talabalarga so'z tarkibi haqida tushuncha berilganda, ona tili bilan o'zbek til o'rtasidagi farqli jihatlariga ham e'tiborni tortish talabalar uchun foydali. O'qituvchi talabalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

1.O'zbek tilida so'z tarkibi qanday?

2.O'zbek va rus tillarida so'z tarkibining o'xshash va farqli tomonlari bormi?

3.Asos va qo'shimcha haqida qanday ma'lumotlar bera olasiz?

Bizga ma'lumki, so'z tarkibi haqidagi ma'lumotlar tilning morfemika bo'limida o'rganiladi. Maktab davridayoq o'quvchilarga so'z tarkibi xususida boshlang'ich ma'lumotlar berilgan. Bu ma'lumotlar oliy ta'limda talabalar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan yangi bilimlarni egallashi uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun rus guruhlarida talabalarga morfemikaning quyidagi tushunchalari haqida o'zbek tili darslarida berilgan ma'lumotlar eslatiladi.

Morfemika – tilshunoslikning so'z tarkibi haqidagi bo'limi. So'zlar tarkibiga ko'ra asos va qo'shimchalarga bo'linadi. Asos so'zning asosiy lug'aviy ma'nosini bildiradi. Qo'shimchalar esa faqat asosga qo'shilib ma'no ifodalay oladi. Ular bildiradigan ma'nolariga ko'ra 2 turga bo'linadi. So'z yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar. So'z yasovchi qo'shimchalar yangi lug'aviy ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularning so'zlarga qo'shilish tartibi quyidagicha: asos+so'z yasovchilar+shakl yasovchilar (2.12-13).

Bu ma'lumotlar rus tilida berilgan quyidagi ma'lumotlar bilan qiyoslab o'rganilganda, talabalarining o'zbek tilidagi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishlariga ko'mak beradi.

Morfema – значимая часть слова. Различают корневую и аффиксальную морфему. *Asos* – корень слова выражает основное лексическое значение слова и не имеет в своем составе других морфем. В отличие от русского, в узбекском языке корень может употребляться самостоятельно во всех случаях. *Qo'shimcha*. Аффиксы выполняют различные функции: *so'z yasash* – словообразующую и *shakl yasash* формообразующую. Словообразующие аффиксы меняют лексическое значение слова: *gul*-(цветок), *gul-chi* - (цветовод), *gul-don*-(ваза для цветов). Формообразующие аффиксы меняют лишь форму слова: *gul*-(единственное

число, именительный падеж), gul-lar-(множественное число, именительный), gul-ga-(ед. число, дательный падеж).

So'z tarkibi o'zbek tilida nisbatan rus tilida ancha murakkab. Rus tilida mustaqil so'zlarning ko'pchiligi gapda bir-biri bilan bog'langanda ularning oxiri o'zgarib turadi. Shuning uchun ham mustaqil so'zlar dastlabki shaklidan boshlab o'zgarmaydigan va o'zgaradigan ikki qismga ajratiladi. So'zning turlanganda yoki tuslanganda o'zgarmaydigan va o'z ma'nosini saqlaydigan qismi (основа) deyiladi. Gapda mustaqil so'zlarning o'zaro munosabatini ifodalab, ularning shaklini o'zgartiradigan qismi esa (окончание) sanaladi.

Масалан: *В этом году открывается новая школа. Здание новой школы красивое. Дети любят свою школу. Они учатся в новой школе* gaplarida школа so'zining o'zgarmaydigan qismi (*школа*) asos sanaladi, oxirgi qismi esa so'zning gapdagi grammatik funksiyasiga qarab *школа, школы, школу, школе* tarzida o'zgarib boradi. O'zbek tilida bunday grammatik hodisa yo'q.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, asosning ma'nosini tugalmasiz aniqlash, ayniqsa, o'zbek o'quvchilari uchun ba'zan juda qiyin bo'ladi. Masalan: *мука, ух, пишу, едут* kabi so'zlarning *мук, ух, пиш, ед негизлари*dan so'zlarning asosiy ma'nolarini bilish ancha mushkul. Bunday o'zaklarga kerakli tugalmalar ulangandan keyingina ularning ma'nosi anglashiladi (3.72-73).

Talabalarning mavzuni puxta o'zlashtirishlari uchun mustaqil amaliy mashqlar ustida ishlash kutilgan natijani beradi. Qanday ta'lim berganimizning natijasi ular egallagan amaliy ko'nikma hamda malakalar orqali o'lchanadi. Bu jarayonda talabalar mashq talabiga javob berish uchun o'z bilimlarini xotirada tiklaydilar, mustaqil fikr yuritadilar, ijodiy izlanadilar. O'qituvchining ko'rsatmalari va yo'l-yo'riqlari asosida ijodiy faoliyat yuritadilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'z ona tilisining grammatik qonuniyatlarini yaxshi bilgan talaba o'zga til materiallari qiyosiy o'rganilayotganda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Ikki tilni qiyoslash orqali o'zlashtirilgan o'quv materiallari xotiradan tezda o'chib ketmaydi, mustahkam saqlanadi.

ADABIYOT:

- Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида” ги Қонуни // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. Тўплам. –Тошкент, 1996. – Б. 20-30.
- Muhtidinova X.S., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili. (Oliy ta'lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B.288.
- Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 256.

MUNDARIJA:

1	Muhamedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhaimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112